

## RUHIY RITMIKLIKNING BADIY-ESTETIK MOHIYATI

**Xolmatova Ro'zixon**  
FarDU 1-bosqich magistranti  
[rozixonxolmatova289@gmail.com](mailto:rozixonxolmatova289@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Men bu maqolam orqali ayol ruhiyatining ritmik xususiyatlarini asar misolida atroflicha ochib bermoqchiman.Ruhiyatdagi ritmiklik inson ruhiy olaming muvozanatsizligini ya'ni inson ruhiyatida o'sish hamda pasayish ,davomli va o'zgaruvchan ruhiy ritmik holatlarning nomoyon bo'lqidir.

**Kalit so'zlar:** ritm, ruhiyat, temperament, xarakter, ayol psixologiyasi, evolyutsiya, dinamika, statika, psixologizm

### KIRISH

Ritm-borliqdagi eng kichik zarradan tortib eng yuksagiga qadar bo'lgan jamiki jonli va jonsiz mavjudotllarning kundalik hayotida mavjud bo'lgan hodisadir.,,Xaqiqatdan ham ,mavjud borliqdagi har bir harakatda o'ziga xos ritm bo'ladi .Inson ham tabiatdagi bir jism sifatida qaralsa ,uning har bir harakatida ,jumladan, nutqida ham ritm mavjud bo'ladi.Izohda qism butun aloqasidagi nutqiy bo'laklar –bo'g'in' turoq, misra, band ritmik bo'lak yoki ritmik birlik, deb yuritilishi hamda ritm vositalari haqida ham ma'lumot berilgan,,1 Biz ritm haqida so'z yuritilganda avvolambor lingvistik tomonlama ritm tushunchasiga izoh beramiz. Lingvistik lug'atlarda „nutq hosil bo'lqidir tezlik va sekinlik, balandlik va pastlik, cho'ziqlik va qisqalik, o'xshashlik va noo'xshashlik bir meyorda almashinib turishi,,2 „urg'uli va urg'usiz ,cho'ziq va qisqa bo'g'indarning almashinishi,,3 deb belgilanadi.Biz faqatgina ritm hodisasini lingvistik tarafdan qarashimiz tor doiradagi fikrlar majmuasi bo'lib, bu masalaga kengroq yondashmog'imiz zarur. Adabiyotshunoslikning nazm yo'nalihsida ritm bo'yicha juda ko'p tadqiqotlar ishlangan va va yetarlichcha ilmiy ishlar mavjud.Ritmik qurulishni she'riyatda aniqlashda avvalo,,ritmik bo'lak va ritmik vositalarni belgilab olish''va „ritmik bo'laklar sifatida bog'in [hijo],turoq[rukn] misra va band''kerakligi haqida yozadi D. Qur'onov .Nasrdagi ritm nazmda bolgani singari ohang va qofiyada nomoyon boladi. „Adabiyotshunoslikda nasriy nutqning ritmik bo'laklariga ajralishi qadim zamonlardayoq anglangangan.Antik ritorikadan boshlab nasriy nutqning eng kichik ritmik bo'lagi kolon istilohi bilan yuritilgan.Zamonaviy adabiyotshunoslikda ham ushbu termin yuqorida tariflangan sintagma istilohi o'rnida qo'llanadi .Aslida bu termin o'zaro „umumiylilik-xususiylik

“munosabatida; agar sintagma umuman nutqqa xos ritmikbo’lak manosida qo’llansa , kolon badiiy nasrga xos ritmik bo’lakni anglatadi” bu izohlar orqali biz ritm qanday hodisa ekanligini , tilshunoslik va adabiyotshunoslikda tutgan o’rnini bilib oldik.o’zimning ilmiy tadqiqotim davomida ruhiyatdagi ritmik hodisani badiy asarlar orqali izohlab berishga harakar qildim. Avvalo ritm nima degan savolga adabiyotshunos sifatida javob topa olgan bo’lsak , psixaligik tarafdan ruhiyat atamasining ma’nosini anglamog’imiz zarur . Ruhiyat –yuksak darajada tashkil topgan materiya [miya]ning voqealikni alohida shaklda aks ettirishdan iborat xususiyati . Ma’lum vaqt oraligida ijobiy va salbiy harakterning o’sish va pasayishi , davomli va o’zgaruvchan holatda inson ichki va tashqi dunyosiga ta’sir etuvchi omil sifatida ruhiy ritmiklik terminini bemalol qo’lay olishimiz mumkin.Ruhiyatdagi ritmiklik istilohi bugungi kun adabiyoti uchun mavhum tushuncha bo’lib qolmasligi kerak.bilamizki psixalogiyada temperament degan tushuncha bor .”Har qaysi kishidagi hissiyotning qo’zg’alish tezligi ,kuchi va barqarorligi har xil bo’ladi . Bir xil odamlarning hissiyoti tez ,kuchli qo’zg’aladi va barqaror bo’ladi .Ba’zi kishilarda esa bunday qo’zg’alish sust ,zaif bo’lib uzoqqa bormaydi.Temperamentning bunday xususiyatlari kishidagi hissiyotning qo’zg’alishlari bilan birga ,organizmning atrofidagi muhit tasiriga javoban ko’rsatadigan ixtiyorsiz reaksiyalarida ,ayniqsa,yaqqol ko’rinadi.,Ruhiy ritmiklik tushunchasini psixalogiyadagi temperament terminaga o’zaro hamohang termin sifatida qo’llay olsak bo’ladi.bu ikki fanning ozaro bog’liklik holatlarini bir nuqtada tutashtirish yangi bir ilmiy izlanishlarga turtki bo’ladi .Temperament qadimdan to’rt guruhga bolinadi 1]xolerik 2)sangvinik 3]melanxonik 4)flegmatik

Xolerik temperament — hissiyotning tez va kuchli qo’zg’aluvchanligi,barqaror bo’lishi bilan farq qiladi. Xolerik temperamentli kishilarning hissiyotlari ularning imo-ishoralarida, mimikalarida, harakatlari va nutqlarida yaqqol ko’rinib turadi. Xoleriklar qizg’inlik va tajanglikka moyil bo’ladilar. Bunday temperamentli kishilar chaqqon, umuman harakatchan ,serg’ayrat va va har doim urunuvchan bo’ladilar.

Sangvinik temperament — hissiyotning tez, kuchli qo’zg’aluvchanligi, lekin beqaror bo’lishi bilan farq qiladi. Sangvinik temperamentli kishi-larning kayfiyati tez-tez o’zgarib, bir kayfiyat o’ziga teskari bo’lgan ik-kinchi bir kayfiyat bilan tez almashib turmog’i mumkin. Sangviniklardagi psixik jarayonlar, xoleriklardagi singari, tez o’tadi. Bu xil temperamentli kishilar ildam, chaqqon, serharakat va jo’shqin bo’ladilar.

Melanxolik temperament — hissiyotning sekin, lekin kuchli qo’zg’aluvchanligi va barqaror bo’lishi bilan farq qiladi. Melanxoliklar barqaror, davomli bir kayfiyatga moyil bo’ladilar, lekin hissiyotlarining

tashqi ifodasi juda zaif bo'ladi. Melanxolik temperamentli odamlar sust- kash bo'ladilar. Melanxolik temperamentli odam ishga birdan kirishmas- ligi mumkin, lekin bir kirishsa— hissiyotning juda sekin, kuchsiz qo'zg'alishi va uzoq davom etmasligi bilan farq qiladi.

Flegmatik temperamentli kishilar hissiyotlarining tashqi ifodasi kuc boshlagan ishni oxiriga yetkazmay qo'y maydi. Flegmatik temperament hsiz bo'ladi. Bu xil temperamentli odamlarni xursand qilish, xafa qilish yoki g'azablantirish ancha qiyin.

Har bir asarda qahromonning ruhiy olami xarakter darajasiga ko'tariladi .Asardagi qahramonning ruhiy olami asarning qay yo'sinda ketishiga, syujetiga ahamiyatli ravishda ta'sir etadi. Asar qahramonining ruhiy kechinmalari asarning ham mazmun mohiyatini belgilab beradi. Insonning umr yo'lini qahramon evalutsiyasi deb olsak mana shu evalutsiyasini shartli ravishda 3davrga bo'lamiz: 1 bolalik, 2 yoshlik, 3 keksalik. Mana shu davr mobaynida insonning ruhiy olamida ham ritm hodisasi yuz beradi. Ma'lumki, inson butun hayoti davomida o'zgarishlarsiz yoki muttasil siljishlardan xoli bo'la olmaydi. Bundan kelib chiqadiki, qahramon ruhiyati ham davr va ijtimoiy muhit silsilalaridan omon-eson o'tgan holda, ma'lum ma'noda oqim bo'y lab suzadi yoki aksincha, isyonkorlik ruhi bilan sug'orilgan g'oyalarni qabul qilib, o'z hayotida keskin burilishlar yasaydi. Misol tariqasida oladigan bo'lsak, havaskor yozuvchilarimizdan biri Mehrinozaning qalamiga mansub "Aks" hikoyasi bosh qahramoni Qurbanoyni olishimiz mumkin. Mo'jaz hikoya Qurbanoyning yosh qizaloqlik payti, bo'y yetgan payti va nihoyat, farzandlari voyaga yetgan davrni o'z ichiga oladi. Yozuvchining tahsinga sazovor mahoratidan biri aynan bir xil voqeaga uch yosh nuqtayi nazaridan yondashishida hisoblanadi. Hikoya interyer tasviri bilan boshlanadi, ya'ni: "Bolaxonaning og'ir yopiluvchi eshigi kuchli shamol ta'siridan qars etib yopildi va zar bilan yopilgan eshik taxmonda taxlangan burungi ko'rpalarning taxini buzdi. Ijirg'anib turganga o'xshovchi qiyshiq xontaxta ustida ikki dona chirishni boshlagan olma, aftidan bu uyg'a ikki-uch kunlab odam kirmaydiganga o'xshaydi. Eski uvadalarning hidi anqib turgan xona xonadon egalarining kayfiyati kabi mung'ayib turar edi."

Endi bosh qahramonimizga keladigan bo'lsak, yozuvchi uning portretini chizmaydi, shunchaki qizaloqning "Chillak" o'yinidagi holatidan kelib chiqib, ba'zi fe'l-atvorini aytib o'tadi va shu orqali kitobxon o'ziga umumiy xulosa chiqarib oladi. Masalan, uning besh yosh ekanligi, bitta toshchani talashib, o'g'il bola bilan yuz timdalashgacha borganligidan uning shaddod, yerga ursa, ko'kka sapchiydigan qiz ekanligini anglash mumkin. Bir kun shunday voqeа yuz beradiki, sevimli kitobini olmoqchi bo'lib, onasidan uni olib berishini iltimos qiladi, lekin onasi kitob olgandan ko'ra do'kondan non olib kelishini buyurib,

“Qorningni o’yla, shuning o’zi yetadi” degan javobni beradi. U yosh qizaloq istaklarining dastlabki rad etilishi bo’ladi. Lekin, qizaloq non olmasdan kitob sotib olganini ko’rgan otasi uni ayovsiz kaltaklaydi va ko’chaga chiqishini ta’qiqlab qo’yadi.

Oradan bir necha yil o’tadi, qiz ulg’ayib, ko’zni quvnatadigan ravishda go’zallashadi. Uylaridan sovchilarining keti uzilmaydi va otasi Qurbanoyni savdogar boyning o’g’li Qulmurodga turmushga bermoqchi bo’ladi. Qizning ko’ngli esa o’sha bolalikda yuzlarini tirlab, bir-biri bilan tinmay urushadigan Erkinda edi. qiz onasiga ko’nglidagini aytgan zahoti, ona: “Otang bilan akalaring kallangni oladi”- deydi. Qurbanoy muhabbat uchun kurashish uchun qilgan yagona harakati – zahar ichish bo’ldi, lekin buning ham oldi olindi va Qurbanoy taqdir izmiga “qurban” bo’ldi. Oradan yillar o’tdi, alam va zahmatlarga to’la hayotda u uch farzandni dunyoga keltirib, voyaga yetkazdi. Zolim arning aysh-u ishrat, zulm va kayf-u safoga qurilgan hayotida zaqqum tortgan ayni shu qahramonimiz bo’ldi. So’nggi zarba esa qaqshatqich bo’ldi: uch o’g’il otasining xurmacha qiliqlarini davom ettirib, butun boylikni kulini ko’kka sovurdi. Bu ham yetmaganidek, hech vaqosiz qolgan onani otasidan o’rgangan “yuksak hurmat” vositasida tashlab ketishdi. Tashlab ketish ham onaning bo’ynidagi tilla zanjirni yulqishasnosida yuz berdi, xirqirab, chalajon qilib do’pposlab, ortiga bir bora ham qayrilmay ketdi. Ana endi asarning kulminatsion nuqtasiga yetib keldik: joni bo’g’ziga kelgan onaizorning ortga-o’tgan umriga razm solishi va o’z istaklarida sobit tura olmagani, bu vositasida butun hayoti bu dunyoning do’zaxida kuyib kul bo’lgani ko’z oldidan bir-bir o’tdi. Xulosa esa bugungi qadam ertanig zaminiga aylanishi, ko’z yumish oxir-oqibat o’z hayotidan qo’l yuvishga qadar olib borishi ochiqlandi. Yuqorida ko’rib o’tganimizdek, arzimagan bir xohishda sobit tura olmaslik bir inson hayotini butunlay barbod bo’lishiga olib keldi. Dastlab o’zboshimchalik bilan qilingan isyon ham tashqi omillar vositasida borib-borib yo’qoldi, ayol hayotini “ko’nikish kerak, sabr qilish kerak, chidash kerak” qabilidagi erkinlikdan mahrum qiluvchi g’oyalar mahv etdi. Yakunda esa onasidan yodgorlik bo’lgan zanjirni bermaslik vositasida hayotdan ko’z yumdi.

Tabiiy jarayonlardan ma’lumki, evolyutsiya rivojlanish asosiga quriladi, ya’ni bugungi kundan ko’ra ertanig yaxshiroq bo’lishi kabi. Lekin ko’rib o’tgan hikoyamizda evolyutsiya o’sishga emas, ko’nishga xizmat qildi, o’zlikni yo’qotishga-da xizmat qildi. Dastlabki voqeada isyon bor edi, qaysarlik, o’z istaklarida sobitlik bor edi. Ikkinchchi holatda isyon cho’qqiga chiqdi: hayotdan voz kechish yagona choraga aylandi. So’nggi vaziyatda esa kuchdan qolgan vujudga navqiron uch yigitning nafsi yakun yasadi, kuchsiz

qarshilik ham kuchli zARBaga sabab bo'ldi. Bu sabab esa bir "o'zini baxshida qilgan" ona, rafiqqa, INSON umriga zomin bo'ldi.

Ritm bu-musiqiylik bilan bevosita aloqador jarayon hisoblanadi. Xuddi musiqada bo'lganidek, dastlab sokin temp, keyin avj, oxiri esa yana tempning sustlashishi bilan yakunlanadi. Yuqoridagi hikoyada ham ayni shu voqelik o'z tasdig'ini topayotir: dastlab so'roqsiz kitobni oldi, cheklov o'tib tushganidan hatto o'limgacha bordi, yakunda esa unsiz yig'i va baxshida umrga achinishgina ro'y berdi xolos. Yuqorida sanab o'tilgan uch holat ruhiyatning ritmikligini, goh baland, goh past, goh isyonkor, goh itoatkor bo'lishidan dalolat bermoqda. Xuddi shuningdek, ruhiy evolyutsiya ham rivojlanish va to'xtash, yuksalish va cho'kish kontrastligidan yuzaga keladi, yuqori-quyi, flegmatik-sangvinik, xolerik-melanxolik xarakter tiplarini o'zida namoyon qiladi. Demak, inson ruhiyati ham barqaror emas, barcha-barchasi vaziyat taqozosidan vujudga keladi, xuddi inson yashayotgan hayot kabi doimiy harakatda, doimiy o'zgarish tempida inson borlig'ini tashkil etadi. Ruhiyatning asosida esa erkinlikka intilish, zindon bo'ljan jasaddan xoli bo'lish g'oyasi yotadi. Ruh zindonband ekan, muttasil kurash ham, muttasil o'zgarish ham, muttasil isyon ham, muttasil ko'nish ham davom etaveradi. Shu jihatdan "Aks" hikoyasi bir ayol misolida tug'yon va istak, sabr va g'azab, bardosh va bariga qo'l siltash psixologik tendensiyalarini mohirona aks ettira olganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi va ruhiy ritmiklik, ruhiy evolyutsiya, xarakter tipini mo'jaz hikoya bag'riga singdira olganligi bilan ajralib turadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.Quronov D. va boshqalar. "Adabiyotshunoslik lug'ati" –T.: Akademnashr,2013. 46-bet
2. Solijonov Y. Detallar tilga kirganda// O'zbek adabiy tanqidi. –T.: "Turon-Iqbol",2011
3. Normatov U. Bugunning hikoyalari. Jahon adabiyoti, 1997-yil,3-son
4. Imomova G. Hikoyada badiiy sintez va ramziy tasvir, Sharq yulduzi, 2005-yil, 3-5-fasl
5. Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar. –T.: O'zdavnashr, 1955, -B.150
6. Grifsov B.A. Psixologiya pisatelya. –M.: Xud.lit.,1988